



TURKIY TILLAR VA ULAR ORASIDA O‘ZBEK TILINING TUTGAN O‘RNI

Xasanova Mahfuza Saxibovna
University of Economics and Pedagogy
“Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim” kafedrasi o‘qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy tillar oilasi, uning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti va tuzilishi haqida ilmiy-tahliliy ma'lumotlar berilgan. Xususan, o‘zbek tilining turkiy tillar tizimidagi o‘rni, uning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada o‘zbek tilining qarluq guruhiya mansubligi va boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy jihatlari yoritilib, uning mintaqaviy va madaniy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Turkiy tillar, o‘zbek tili, qarluq guruhi, tarixiy taraqqiyot, leksik birliklar, fonetika, grammatik tizim, til oilasi.

Аннотация: В статье представлены научные и аналитические сведения о тюркской языковой семье, ее формировании, историческом развитии и структуре. В частности, анализируется место узбекского языка в системе тюркских языков, его фонетические, лексические и грамматические особенности. В статье освещается принадлежность узбекского языка к карлукской группе и его сравнительные аспекты с другими тюркскими языками, раскрывается его региональное и культурное значение.

Ключевые слова: тюркские языки, узбекский язык, карлукская группа, историческое развитие, лексические единицы, фонетика, грамматическая система, языковая семья.

Abstract: This article provides scientific and analytical information about the Turkic language family, its formation, historical development and structure. In particular, the place of the Uzbek language in the system of Turkic languages, its phonetic, lexical and grammatical features are analyzed. The article highlights the belonging of the Uzbek language to the Karluk group and its comparative aspects with other Turkic languages, and reveals its regional and cultural significance.

Keywords: Turkic languages, Uzbek language, Karluk group, historical development, lexical units, phonetics, grammatical system, language family.

Kirish

O‘zbek tili turkiy tillarga mansub bo‘lib, oltoy naza riyasiga ko‘ra mo‘g’ul, tungus-manjur, koreys va yapon tillari bilan birgalikda oltoy tillari oilasini tashkil qiladi.

Hozirgi o‘zbek tili qadimgi turkiy tilidan ajralib chiqqan. Turkiy tillar o’rtasidagi qarindoshlik, yaqinlik sintaktik qurilmalarning birligida, so’z o’zgartuvchi, so’z yasovchi, shakl yasovchi affikslarning o’xshashligida, tovush tuzilishi va lug’at boyligidagi barqaror, zaruriy tushun chalarni bildiradigan so’zlarning umumiyligida yaqqol ko’rinadi. Ana shu umumiyligida belgilarga to’g’ri kelmaydigan fonetik, leksik va qisman grammatik farqlar til tarixi taraqqiyotining so’nggi davrlarida paydo bo’lgan xususi yatlardir. Hozirgi turkiy tillarning o’ziga xos xususi yatlari ularning mustaqil tillar sifatida taraqqiy etishidan dalolat beradi.

O’zbek tili turkiy guruhga kiruvchi tillardan biri bo’lib, undagi fonetik, morfologik, sintaktik, leksik o’xshashliklar Markaziy Osiyoda istiqomat qiluvchi uyg’ur, qozoq, qoraqalpoq, qirg’iz, turkman xalqlarining tillarida ko’proq uchraydi. Bu o’zbek xalqining til jiqatdan yuqoridagi xalqlar bilan uzoq vaqtlardan buyon ijtimoiy munosabatda bo’lib kelganligining natijasidir. Shuning uchun ham ma’lum o’ziga xoslikni qisoblamaganda, o’zbek, qozoq, qirg’iz, uyg’ur, qoraqalpoq- poqlar bir-birlarini qiynalmasdan tushuna oladi. Ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari va diniy e’tiqodlarida ham mushtaraklik bor. Agar yoqut, tuva, xakas tillarini olsak, bularda o’zbek tili bilan mushtaraklik bo’lsa ham, lekin uzoq vaqtlardan beri ijtimoiy aloqaning bo’lmaganligi (ruslar bilan bo’lgani), yashash sharoitlarining, tirikchiligining har xilligi tufayli til xususiyatlarida farqlar ko’p. Birgina leksikasini olsak, masalan, yoqut tilida chor vachilik bo’yicha kiyik, los tarmoqlari rivojlangan.

Bunday o’xshashlik va farqlarni Volga bo’yi, Kavkaz, Sibir va boshqa xududlarda yashaydigan turkiy xalqlar ning tillarida ham uchratish mumkin. Turkiy tillar o’rtasidagi o’xshash va farqli xususiyatlar fonetika,morfologiyadagina emas, balki leksikada qam yaqqol ko’rinadi. Masalan: o’zbek tilida *boshoq*; uyg’ur tilida *bashaq-mashaq*; qozoq, qoraqalpoq tillarida *masaq*; turk man tilida *summul* (ar. *sumbula*); yoqut tilida *kuolas* (rus, *kolos*) va sh. k.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Turkiy tilli xalqlar miqdor jiqatdan dunyoda katta o’rin tutadi. Ular:

I. Mustaqil davlatlariga ega bo’lgan turkiy xalqlar: 1) turk, 2) o’zbek, 3) qozoq, 4) turkman, 5) ozarbayjon,6) qirg’iz.

II. Muxtor jumquriyatlardagi turkiy xalqlar:

7) qoraqalpoq, 8) tatar, 9) boshqird, 10) tuva, 11) chuvash, 12) yoqut.

III. Muxtor viloyatlardagi turkiy xalqlar: 13) oltoy, 14) xakas.

IV. Ko’p millatli jumquriyatlar va muxtor jumqu- riyatlarda yashovchi turkiy xalqlar: 15) gagauz (Moldova),16) qorachoy-bolqor (Kabardin-Bolqor muxtor jumhuriyati va Qorachoy-Cherkas muxtor viloyati), 17) hrim-tatar (Qrim, O’zbekiston va Qozog’iston), 18) humiq (Dog’iston muxtor jumhuriyati), 19) no’g’oy (Rossiya). 20) uyg’ur (Sharhiy Turkiston, shuningdek,Qozog’iston va O’zbekistonda ham yashaydi).

Turkiy tilda so’zlashuvchi yana shunday elatlar mavjud, ularning ona tili asosan mayishiy hayotda foyda laniladi, ijtimoiy vazifasi juda chegaralangan. Ular o’zlarining rasmiy yozuvlariga ega emas. Zarurat tug’ilganda, eski alifboden foydalananilar. Bunga kara im, shor, chulim tillari kiradi. Ushbu tillar bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Turkiy tilda so’zlashuvchi xalqlar Afgoniston, Eron, Xitoy, Yugoslaviya, Albaniya, Gretsya va boshqa xorijiy mamlakatlarda ham yashaydi.

Bulardan birgina o’zbeklarni olsak, O’zbekiston jumhuriyatidan boshqa Tojikiston, Qozog’iston, Turkman iston, Qirg’iziston va Qorahalpog’istonda ham bu tilda so’zlashuvchi millionlab o’zbeklar istiqomat qiladi.

O’zbeklar xorijiy o’lkalardan Afg’onistonda, Xitoy ning uyg’urlar yashaydigan viloyatlarida, Turkiya, Eron, qisman Germaniya, Amerika va boshqa joylarda turg’un bo’lib qolganlar.

O’zbek tilining turkshunoslikdagi obro’yi keyingi yillarda ortib bormoqda. Bu til hozir Amerikaning kogina universitetlarida, Germaniya, Turkiya, Hindiston va Afgonistonda alohida o’rganilmoqda. O’zbek tili, uning tarixi va mumtoz adabiyotimizga oid kitoblar, ilmiy tadqiqotlarning xorijda nashr qilinishining o’ziyoh fikrimizni tasdiqlaydi.

XV asr olamida ulug’ mutafakkir shoir, madaniyat va davlat arbobi Alisher Navoiyning mashaqqatli mehnati, izlanishlari hamda Husayn Boyqaroning xomiyligi tufayli turkiy tillar orasida o’zbek tilining mavqeい jahon miqyosiga ko’tarilgan edi. Ana o’sha vaqtida adabiy til bo’la oladi deb amaliy va nazariy jihatdan isbotlangan eski o’zbek (turkiy) tilimiz bizning davrimizgacha o’zining asosiy fonetik, grammatic qurilishi va lug’at xususiyatlarini saqlagan holda yetib keldi. Hozirgi tilimiz eski uzbek adabiy tilining davomi — o’zbek xalqining davlat tili sifatida keng xalq ommasiga xizmat qilib kelmoqda.

XULOSA

Turkiy tillar oilasi tarkibidagi o’zbek tili o’zining boy tarixiy-madaniy merosi va lingvistik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning qarluq guruhiga mansubligi, boshqa turkiy tillar bilan leksik va grammatic yaqinligi hamda mustaqil rivojlanish yo’nalishi ushbu tilning alohida mavqega ega ekanligini ko’rsatadi. O’zbek tili nafaqat ilmiy-tadqiqot nuqtayi nazaridan, balki amaliy muloqot vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Ushbu til turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga mansub bo’lib, bu guruhga kiruvchi boshqa tillar – uyg’ur va uyg’ur yozma tili bilan muayyan o’xshashliklarga ega. O’zbek tilining shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayonning natijasi bo’lib, uning ildizlari qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarigacha borib taqaladi.

Bugungi kunda o’zbek tili nafaqat ilmiy-tadqiqot nuqtayi nazaridan, balki amaliy muloqot vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. O’zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida o’zbek tili rasmiy hujjalilar yuritilishi, ta’lim, madaniyat va ommaviy axborot vositalarida keng qo’llaniladi. Shuningdek, dunyoning turli burchaklarida yashovchi o’zbeklar ham o’z ona tillarida so’zlashib, milliy o’ziga xosliklarini saqlab qolmoqdalar.

O’zbek tilining xalqaro maydondagi o’rni ham tobora ortib bormoqda. Turli universitetlar va ilmiy markazlarda o’zbek tili bo’yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, o’zbek tilini o’rganishga bo’lgan qiziqish kuchaymoqda. Shuningdek, turkiy tillar oilasi doirasida o’zbek tili bilan boshqa tillar o’rtasidagi leksik va grammatic o’xshashliklar, ularning o’zaro ta’sir jarayonlari ilmiy izlanishlarning muhim yo’nalishlaridan birini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili o‘zining qarluq guruhiga mansubligi, boy tarixiy-madaniy merosi, o‘ziga xos lingvistik xususiyatlari va mustaqil rivojlanish yo‘nalishi bilan turkiy tillar orasida alohida mavqega ega. U nafaqat milliy identitetni saqlash vositasi, balki ilmiy va amaliy jihatdan muhim kommunikatsiya tili sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Абдураҳмонов F. Рустамова А. Қадимги туркий тил. 'Гошкент, 1982.
2. Н. А. Баскаков, Алтайская семья языков и ее изученис. М., "Наука", 1981, С. 118-119.
- 3.Doerfer, G. (1980). "Turkic Languages and Peoples."
- 4.Johanson, L. & Csato, E. A. (1998). "The Turkic Languages."
- 5.Navoiy, A. (1499). "Muhokamat ul-lug'atayn."
- 6.Bodrogligli, A. (2001). "Modern Uzbek: A Textbook for Intermediate and Advanced Students."
- 7.Qosimov, B. (2010). "O‘zbek tili tarixi va dialektologiyasi."
- 8.Bekmurodov, Sh. (2015). "Turkiy tillarning qiyosiy grammatikasi."